TSUE

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR / 9-SON, I-QISM

Google scholar

RePEc RESEARCH PAPERS IN ECONOMICS

ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:
Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI 34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna
BREND POZITSIYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI 41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O‘ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA’SIRI 46
Davlatova Nilufar Avazovna
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O‘ZBEKISTON MISOLIDA) 50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS» 61
Мусаева Шоира Азимовна
KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI 68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi
GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O‘ZGARISHLARNING YANGI O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI 73
Jahongir Nurulloyevich Jurayev
YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI 77
Nasulloeva Oydinoy Saidovna
ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ 82
Палвонова Севара Бахромовна
MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI 94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna
INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI 99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich
Dilmurodov Komiljon Ahmad o‘g‘li
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI 103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich
AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH 108
Xusanov Shuxrat Burxanovich
FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN’S HOSPITALITY SECTOR 115
Asal Kadirova
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ 125
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O‘SISHDAGI ROLI 131
Komilova Dilafruz Rustam qizi
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI 137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna
O‘taganov Fazliddin Isroil o‘g‘li
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ 142
Эргашева Файёза Боходир кизи
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ 146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O‘RNI 154
Matrasulova Feruza Baxodirovna
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI 159
Qo‘shaqov Asrorjon Nematjonovich
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ 166
Мирзаева Дилдора Иномовна
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA) 174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 183
Aslanova Dilnoza Fatilloyevna

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Aslanova Dilnoza Fatilloyevna
Osiyo xalqaro universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0006-7177-0848
E-mail: aslanovadilnoz87@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati, asosiy muammolari va istiqbollari xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida kichik va o‘rta biznes (KOB) sektorining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, ayollar tadbirkorligining rivojlanish holati hamda institutsional muhitning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo taraqqiyot banki va BMT Taraqqiyot dasturining so‘nggi hisobotlari asosida soha rivojlanishini cheklovchi asosiy omillar — moliyalashtirish taqchilligi, davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ustun mavqeyi va tartibga solish yukining yuqoriligi — aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va raqamli tadbirkorlik ekotizimini kengaytirish bilan uzviy bog‘liqligi asoslangan hamda tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznes, xususiy sektor, moliyalashtirish taqchilligi, investitsiya muhiti, institutsional islohotlar, ayollar tadbirkorligi, raqamli iqtisodiyot, O‘zbekiston.

Аннотация. Современное состояние, основные проблемы и перспективы развития предпринимательства в Узбекистане проанализированы на основе официальных данных международных финансовых институтов. В рамках исследования изучены роль сектора малого и среднего бизнеса (МСБ) в национальной экономике, возможности доступа к финансовым ресурсам, состояние женского предпринимательства и особенности институциональной среды. На основе последних отчётов Всемирного банка, Международного валютного фонда, Азиатского банка развития и Программы развития ООН определены основные факторы, ограничивающие развитие сектора, — дефицит финансирования, доминирующее положение государственных предприятий в экономике и высокая регуляторная нагрузка. По результатам исследования обоснована взаимосвязь перспектив развития предпринимательства в Узбекистане с повышением финансовой инклюзивности, углублением институциональных реформ и расширением экосистемы цифрового предпринимательства, а также разработаны соответствующие практические рекомендации.

Ключевые слова: предпринимательство, малый и средний бизнес, частный сектор, дефицит финансирования, инвестиционный климат, институциональные реформы, женское предпринимательство, цифровая экономика, Узбекистан.

Abstract. The current state, key challenges, and prospects for entrepreneurship development in Uzbekistan are analyzed based on official data from international financial institutions. The study examines the role of small and medium-sized enterprises (SMEs) in the national economy, access to financial resources, the development of women’s entrepreneurship, and the characteristics of the institutional environment. Drawing on recent reports from the World Bank, the International Monetary Fund, the Asian Development Bank, and the United Nations Development Programme, the study identifies the main factors constraining sectoral development, including the financing gap, the dominant position of state-owned enterprises in the economy, and the high regulatory burden. The findings demonstrate that the prospects for entrepreneurship development in Uzbekistan are closely associated with enhancing financial inclusion, deepening institutional reforms, and expanding the digital entrepreneurship ecosystem. Based on the findings, relevant practical recommendations are proposed.

Keywords: entrepreneurship, small and medium-sized enterprises, private sector, financing gap, investment climate, institutional reforms, women’s entrepreneurship, digital economy, Uzbekistan.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlangan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar davlat boshqaruvidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tezlashtirish va xususiy sektorni iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirishga qaratilgan. 2030-yilga qadar yuqori o‘rta daromadli davlatlar qatoriga kirish strategik maqsadi doirasida tadbirkorlikni, xususan, kichik va o‘rta biznesni (MChJ/MB) rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi [1; 8]. Xalqaro moliya institutlarining baholashicha, O‘zbekistonda MChJ/MB sektori mamlakatda faoliyat yurituvchi korxonalarning katta qismini tashkil etadi hamda bandlik va yalpi ichki mahsulotning muhim ulushini shakllantiradi [4]. Shu bilan birga, sektorda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi raqobat muhitini takomillashtirish hamda institutsional islohotlarni izchil davom ettirish zarurati mavjud [3; 6]. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holatini xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma’lumotlari asosida tahlil qilish va sohaning rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalariga quyidagilar kiradi: tadbirkorlik sektorining milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini baholash, moliyalashtirish va investitsiya muhitidagi asosiy cheklovlarni aniqlash, ayollar tadbirkorligi va raqamli tadbirkorlik ekotizimining holatini o‘rganish hamda sektorni yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda milliy va xalqaro tadqiqotchilar e’tiborini jalb qilmoqda. Nosirjonova Z.R. tomonidan olib borilgan tadqiqotda O‘zbekistonda biznes va tadbirkorlikning hozirgi holati, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari tahlil qilingan bo‘lib, MChJ/MB sektorining YaIM va bandlikdagi ulushi, shuningdek, startap ekotizimi va IT Park faoliyatining ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tilgan [1]. Magendzo A. tomonidan tayyorlangan hisobotda O‘zbekistondagi tadbirkorlik ekotizimi atroflicha baholanib, kichik biznes muhiti, fan-texnika salohiyati va innovatsion faollik o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan hamda ekotizimni mustahkamlash bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan [2]. Jahon banki tomonidan O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha tayyorlangan mamlakat iqtisodiy memorandumida 2010–2022-yillar oralig‘idagi iqtisodiy o‘sish dinamikasi, davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi o‘rni va ularning YaIMdagi ulushi tahlil qilingan, shuningdek, xususiy sektor raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan [3]. Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan FINGROW loyihasi hujjatida O‘zbekistonda MChJ/MBning moliyalashtirishga bo‘lgan talabi, kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyoj va xususiy kapital bozorini yanada rivojlantirish imkoniyatlari statistik ma’lumotlar asosida batafsil yoritilgan [4]. BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini baholash bo‘yicha tayyorlangan hisobotda ayollar boshqaradigan korxonalarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bu boradagi mavjud tafovutlarni kamaytirish yo‘llari o‘rganilgan [5]. Xalqaro valyuta fondi tomonidan tayyorlangan tahliliy hujjatda O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni boshqa o‘tish davri iqtisodiyotlari bilan qiyoslanib, davlat korxonalari va banklarni isloh qilish, xususiy sektor rivojlanishi uchun institutsional muhitni yanada yaxshilash zarurligi asoslangan [6]. Axmadjonov K.A. va Maxkamova D.N. tadqiqotida O‘zbekistonda biznes muhitini shakllantiruvchi asosiy omillar — institutsional sifat, huquqiy barqarorlik va raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion biznes-modellarning o‘rni — nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan [7]. Abdurahmonov A.U. va hammualliflari 60 dan ortiq ilmiy manba asosida O‘zbekistonda barqaror tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini tizimlashtirib, siyosat izchilligi, moliyaviy imkoniyatlar va ekotizim yetukligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlagan [8]. Abdullaev A.M. institutsional islohotlarning O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi muhim omil ekanligini asoslab, tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rib chiqqan [9]. Osiyo taraqqiyot banki tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarda O‘zbekistonda mikromoliyalashtirish sektorini yanada rivojlantirish hamda aholining rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini mintaqaviy ko‘rsatkichlarga muvofiq ravishda oshirish imkoniyatlari qayd etilgan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va ikkilamchi statistik ma’lumotlarni umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Ilmiy adabiyotlar va xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo taraqqiyot banki, BMT Taraqqiyot dasturi) tomonidan e’lon qilingan rasmiy hisobotlar tizimli ravishda tahlil qilingan. Bunda tadqiqotda keltirilgan barcha statistik ko‘rsatkichlar — MChJ/MB ulushi, kreditlashtirish darajasi, moliyalashtirish taqchilligi va boshqalar — muallif tomonidan ishlab chiqilmagan, balki yuqorida qayd etilgan xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlaridan olingan va tegishli manbalarga bevosita havola qilingan holda taqdim etilgan. Qiyosiy tahlil metodi yordamida moliyalashtirish, bandlik va institutsional muhitga oid ko‘rsatkichlar o‘zaro solishtirilgan. Tadqiqot doirasida original so‘rov yoki intervyu o‘tkazilmagan; tahlil to‘liq

ikkilamchi manbalar — ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlarning statistik hisobotlari — asosida amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda tadbirkorlik sektorining hozirgi holatini baholash uchun xalqaro moliya institutlari tomonidan e’lon qilingan so‘nggi rasmiy ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

O‘zbekistonda tadbirkorlik (MChJ/MB) sektorining asosiy ko‘rsatkichlari[1]

Ko‘rsatkich	Qiymat	Manba
MChJ/MBning faoliyat yurituvchi barcha korxonalar orasidagi ulushi	90% dan ortiq	Jahon banki, 2025 [4]
MChJ/MBning YaIMdagi ulushi	≈ 53,8–55%	Toshkent xalqaro investitsiya forumi, 2025 [4]
MChJ/MB tomonidan yaratilgan bandlik ulushi	≈ 75%	Jahon banki, 2025 [4]
Kichik korxonalarning bank kreditidan foydalanish darajasi	≈ 10%	Jahon banki (FINGROW), 2025 [4]
O‘rta korxonalarning bank kreditidan foydalanish darajasi	≈ 16%	Jahon banki (FINGROW), 2025 [4]
MChJ/MBning moliyalashtirishga bo‘lgan talabi va taqchilligi	$13 mlrd talab; $6–7 mlrd taqchillik	Jahon banki (FINGROW), 2025 [4]
Xususiy kapitalga talab va real jalb qilingan mablag‘	$20–30 mlrd talab; ≈ $2 mlrd jalb qilingan (3 fond)	Jahon banki (FINGROW), 2025 [4]
Ayollar egalik qiladigan MChJlar ulushi / ular olgan kreditlar ulushi	≈ 33% / ≈ 14%	Jahon banki, BMTTD, 2025 [4; 5]
Mikromoliyalashtirish tashkilotlarining bank tizimidagi ulushi	≈ 0,5%	Osiyo taraqqiyot banki, 2024 [10]
Rasmiy moliyaviy hisobga ega aholi ulushi (O‘zbekiston / Markaziy Osiyo o‘rtachasi)	44% / 58%	Osiyo taraqqiyot banki, 2024 [10]

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, MChJ/MB sektori O‘zbekiston iqtisodiyotida markaziy o‘rin egallaydi — u faoliyat yurituvchi korxonalarning aksariyat qismini tashkil etadi va bandlikning to‘rtdan uch qismiga yaqinini ta’minlaydi [4]. Shu bilan birga, sektorning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur: kichik korxonalarning o‘ndan bir qismi, o‘rta korxonalarning esa oltidan bir qismiga yaqini bank kreditidan foydalanadi, natijada moliyalashtirishga bo‘lgan qo‘shimcha ehtiyoj bir necha milliard dollarni tashkil etadi [4]. Xususiy kapital bozorini yanada rivojlantirish uchun ham katta imkoniyatlar mavjud — faoliyat yuritayotgan xususiy kapital fondlari jalb qilgan mablag‘ talab qilinadigan hajmning muayyan qismini qoplaydi [4]. Ayollar tadbirkorligida moliyaviy imkoniyatlarni yanada kengaytirish uchun ham muhim salohiyat mavjud: ayollar MChJ/MBning taxminan uchdan bir qismiga egalik qilsa-da, ular jami kreditlarning nisbatan kichik ulushini oladi, bu esa gender jihatdan teng moliyaviy imkoniyatlarni yanada kengaytirish zaruriyatini ko‘rsatadi [4; 5].

Institutsional muhit nuqtai nazaridan, Jahon banki tahlillariga ko‘ra, 2020-yilda mamlakatda ikki mingdan ortiq markazlashtirilgan davlat korxonasi mavjud bo‘lib, ularning daromadi YaIMning sezilarli qismini tashkil etgan, bunda ularning ko‘pchiligi xususiy tadbirkorlik ham samarali faoliyat yuritishi mumkin bo‘lgan tarmoqlarda ishlagan [3]. Bu holat xususiy sektor uchun raqobat muhitini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko‘ra, mikromoliyalashtirish tashkilotlari bank tizimining nisbatan kichik qismini tashkil etadi, aholining rasmiy moliyaviy hisobga ega bo‘lish darajasini esa mintaqaning o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan yanada oshirish imkoniyati mavjud [10]. Bu, o‘z navbatida, mikro va kichik tadbirkorlarning rasmiy moliyaviy tizimga integratsiyalashuvini yanada jadallashtirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda sohada ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator tashabbuslar e’lon qilingan, jumladan, Prezident tomonidan Tadbirkorlar kuni munosabati bilan e’lon qilingan qo‘shimcha tashabbuslar tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan [1]. Xalqaro moliya institutlari — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki — MChJ/MBni moliyalashtirish, ayniqsa, ayollar va yoshlar boshqaradigan

1 Muallif ishlanmasi

korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yirik loyihalarni amalga oshirmoqda [4; 10]. Bundan tashqari, IT Park faoliyati va raqamli texnologiyalarning tadbirkorlikka joriy etilishi startap ekotizimining kengayishiga va yangi biznes-modellarning paydo bo‘lishiga xizmat qilmoqda [1; 8]. Bularning barchasi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi mutanosiblikni yanada takomillashtirish hamda raqamli tadbirkorlik ekotizimini mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi [3; 7; 8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin. O‘zbekistonda tadbirkorlik, xususan, kichik va o‘rta biznes, milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i sifatida bandlik va yalpi ichki mahsulotning katta qismini shakllantiradi, shu bilan birga, sektorning yanada rivojlanishi uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi raqobat muhitini takomillashtirish hamda institutsional islohotlarni izchil davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollar tadbirkorligining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va mikromoliyalashtirish sektorini yanada rivojlantirish alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar hisoblanadi. O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollarini mustahkamlash uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif etish mumkin: birinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda MChJ/MB uchun kredit kafolati va xususiy kapital instrumentlarini kengaytirish; ikkinchidan, davlat korxonalarini xususiylashtirish va raqobat muhitini yaxshilash orqali xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish; uchinchidan, ayollar va yoshlar boshqaradigan korxonalar uchun maxsus moliyaviy va maslahat dasturlarini kengaytirish; to‘rtinchidan, mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirish va aholining rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish; beshinchidan, IT Park va raqamli tadbirkorlik ekotizimini yanada kengaytirish orqali innovatsion biznes-modellarning rivojlanishini rag‘batlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nosirjonova Z. R. O‘zbekistonda biznes va tadbirkorlik: hozirgi holat va rivojlanish istiqbollari // Oriens. — 2025. — URL: https://oriens.uz/en/journal/article/ozbekistonda-biznes-va-tadbirkorlik-hozirgi-holat-va-rivojlanish-istiqbollari
2. Magendzo A. The Entrepreneurship Ecosystem in Uzbekistan: Assessment and Strengthening Plan // Institute for Integrated Transitions (IFIT), Uzbekistan Brain Trust. — 2022. — URL: https://ifit-transitions.org/wp-content/uploads/2022/11/IFIT-Uzbekistan-BT-Entrenpreneurial-Ecosystem-in-Uzbekistan.pdf
3. World Bank. Uzbekistan — Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. — Washington, D.C.: World Bank, 2025. — URL: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/cem-2025
4. World Bank. Access to Finance for Jobs and Growth Project (FINGROW): Project Appraisal Document. — Washington, D.C.: World Bank, 2025. — URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111125164834893/pdf/P511700-4c30f714-7fff-495b-8330-6bf575847bf5.pdf
5. UNDP. Women’s Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations. — Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2025. — URL: https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-04/report_women_entrepreneurship_in_uzbekistan_eng_uz.pdf
6. Simone A. The Sequencing and Speed of Reforms in Transition Economies: Implications for the Case of Uzbekistan // IMF Selected Issues Paper. — 2025. — No. SIP/2025/086. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2025. — URL: https://meetings.imf.org/-/media/Files/Publications/Selected-Issues-Papers/2025/English/SIPEA2025086.ashx
7. Axmadjonov K. A., Maxkamova D. N. Key Determinants of the Business Environment and Development in Uzbekistan: Theoretical and Empirical Analysis // Green Economy and Development. — 2025. — URL: https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/8564
8. Abdurahmonov A. U., Hendrayati H., Bekimbetova G. M. Fostering Sustainable Entrepreneurship in Emerging Economies: Strategic Innovations and Ecosystem Roadmaps from Uzbekistan // Management Science Letters (UPI E-Journal). — 2024. — URL: https://ejournal.upi.edu/index.php/msb/article/view/89558
9. Abdullaev A. M. Institutsionalnye reformy kak klyuchevoy faktor predprinimatelskoy deyatelnosti v Uzbekistane // Iqtisodiy fanlar (Economic Sciences). — 2022. — Vol. 2, No. 2. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/institutional-reforms-as-a-key-driver-of-entrepreneurial-activities-in-uzbekistan
10. Asian Development Bank. ADB, Hamkorbank Sign Deal to Enhance Financial Access for Rural MSMEs in Uzbekistan. — Manila: Asian Development Bank, 2024. — URL: https://www.adb.org/news/adb-hamkorbank-sign-deal-enhance-financial-access-rural-msmes-uzbekistan

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz